

## I. YALPI HUDUDIIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil yanvar- dekabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 81 943,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 105,8 foizga teng bo'ldi.

2023- yil yanvar- dekabr oylarida YAHM deflyator indeksi 112,6 foizni tashkil etdi.

**Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)** - milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident - institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM **76 913,1** ming so'mni tashkil etdi.



### Yanvar-dekabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

	mlrd. so'm		o'sish sur'ati, % da
	2022- yil	2023- yil	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>68 799,4</b>	<b>81 943,2</b>	<b>105,8</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	67 558,6	80 865,7	105,8
Mahsulotlarga sof soliqlar	1 240,8	1 077,5	106,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>67 558,6</b>	<b>80 865,7</b>	<b>105,8</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9 369,1	11 224,4	101,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	49 830,1	59 728,5	106,7
Sanoat	47 366,7	56 901,7	106,7
Qurilish	2 463,4	2 826,8	107,5
Xizmatlar	8 359,4	9 912,8	104,4

	mlrd. so'm		o'sish sur'ati, % da
	2022- yil	2023- yil	
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 978,5	2 352,1	106,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	1 124,9	1 322,8	106,8
boshqa xizmatlar	5 256,0	6 237,9	102,9




### Yanvar- dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibi, (% da)



2022- yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 13,9 % ni, sanoat tarmog'i 70,1 % ni, qurilish 3,6 % ni va xizmatlar sohasi 12,4 % ni tashkil qildi.



2023- yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,3 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 13,9 % ni, sanoat tarmog'i 70,4 % ni, qurilish 3,5 % ni va xizmatlar sohasi 12,2 % ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar- dekabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga ijobiy ta'sir, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (106,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa (106,8 %), qurilish (107,5 %), sanoat (106,7 %) va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (101,9 %) tarmoqlaridagi yalpi qo'shilgan qiymat hissasiga to'g'ri keldi.

YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 26,0 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi va bu ko'rsatkich 2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 0,1 foizga ko'paydi.



### 2023- yil yanvar- dekabr oylarida YAHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi, (% da)



### Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va mutlaq o'sish sur'atlari

